Abstract: This article reveals the essence of the “green economy” and provides a detailed explanation of key terms such as “green investments,” “green innovations,” “green entrepreneur,” “green marketing,” and “green tariff.” The organic structure of the green economy, comprising the concepts of “ecological economy,” “economy of nature management,” and “bioeconomy,” is scientifically substantiated. The features of “green energy,” “green transport,” “green industry,” “green water management,” and “green agriculture” are analyzed. Proposals and recommendations for improving the organizational and economic mechanisms of green economic transformation have been developed.

Key words: green economy, ecological economy, economy of nature management, bioeconomy, green transformation, green energy, green transport, green development model.

Аннотация: В статье раскрыта сущность «зеленой экономики» и подробно рассмотрены такие ключевые термины, как «зеленые инвестиции», «зеленые инновации», «зеленый предприниматель», «зеленый маркетинг», «зеленый тариф». Научно обосновано органическое строение «зеленой экономики», включающее понятия «экологическая экономика», «экономика природопользования» и «биоэкономика». Изучены особенности «зеленой энергетики», «зеленого транспорта», «зеленой промышленности», «зеленого водного хозяйства» и «зеленого сельского хозяйства». Разработаны предложения и рекомендации по совершенствованию организационно-экономических механизмов зеленой трансформации экономики.

Ключевые слова: зеленая экономика, экологическая экономика, экономика природопользования, биоэкономика, зеленая трансформация, зеленая энергетика, зеленый транспорт, модель зеленого развития.

KIRISH

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2025-yil mamlakatimizda “Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot yili” deb e’lon qilindi. Prezidentning 2025-yil 30-yanvardagi PF-16-son “O’zbekiston – 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to’g’risida”gi farmoniga muvofiq, mamlakatimizda tarmoqlar va sohalarining uyg’un “yashil transformatsiya”sini amalga oshirish, ularning raqobatbardoshligi va resurs tejamkorligini ta’minlash, iqlim o’zgarishi oqibatlarini yumshatish va unga moslashish, aholi yashash sifatini yaxshilash hamda iqtisodiy o’sishning yangi “yashil rivojlanish” modeliga o’tish maqsadida aniq va muhim chora-tadbirlar ishlab chiqilgan [1].

O’zbekiston iqtisodiyotining “yashil transformatsiya”sini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun, birinchi navbatda, “yashil rivojlanish” modelining tarkibiy tuzilishini yaratish va unga o’tishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini ilmiy jihatdan asoslash zarur, deb hisoblaymiz. Bunday yangi iqtisodiy rivojlanish modelining



tarkibiy tuzilishining muhim qismini “yashil iqtisodiyot”ning tuzilishi va unga o‘tishning samarali vositalari tashkil qiladi. Ushbu maqola aynan shu masalalarni yoritishga bag‘ishlangan bo‘lib, unda “yashil iqtisodiyot” terminologiyalari, organik va tarmoq tuzilmalari batafsil ko‘rib chiqiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

“Yashil iqtisodiyot” g‘oyasining metodologik asosini “ekologik iqtisodiyot” tashkil qiladi. “Ekologik iqtisodiyot” nazariyasining asoschilari R. Costanza, H. Deyli [2], K. Boulding [3] va P. Bartelmyus [4] hisoblanadi. Ushbu iqtisodiy nazariya sekin-astalik bilan “Atrof-muhit iqtisodiyoti” ilmiy yo‘nalishi sifatida rivojlangan bo‘lib, uning mazmun-mohiyati S. N. Bobilyov va A. Sh. Xodjayev asarlarida batafsil yoritilgan [5].

Georgescu-Roegen tomonidan ishlab chiqilgan “Bioiqtisodiyot” nazariyasi ham “yashil iqtisodiyot” atamasining shakllanishida muhim o‘rin tutadi [6]. Mustaqil ilmiy yo‘nalish sifatida “yashil iqtisodiyot” atamasi Devid Pirs, Anil Markandya va Edvard Barbier tomonidan ilmiy asosda tavsiflangan [7].

O‘zbekistonda “yashil iqtisodiyot” nazariyasi A. V. Vaxabov, Sh. Xajibayev, G. Utemuratova [8] va boshqa olimlarning asarlarida ilmiy asoslangan bo‘lib, biroq uning rivojlanish mexanizmlari hali to‘liq yoritilmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada monografik tahlil usuli asosida “yashil iqtisodiyot” tushunchasining iqtisodiy mohiyati yoritilgan, induksiya va deduksiya usullari asosida “yashil iqtisodiyot”ning organik va tarmoq tuzilishi tasniflangan. Qiyoslash usulidan foydalanilgan holda ekologik-, atrof-muhit-, bio- va yashil prefiksli “iqtisodiyot” turlarining qiyosiy tahlili amalga oshirilgan.

Tizimli tahlil usulini qo‘llash natijasida iqtisodiyot tarmoq va sohalarining uyg‘un “yashil transformatsiya”sini amalga oshirish vositalari belgilangan. Analiz va sintez usullari orqali iqtisodiyotni “yashillashtirish”ning bevosita va bilvosita mexanizmlari o‘rganilgan.

Tadqiqotda, shuningdek, kuzatish, solishtirish va statistik guruhlash kabi metodlardan ham foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ilmiy adabiyotlarda “yashil iqtisodiyot” atamasi ilk bor ingliz iqtisodchilari Devid Pirs, Anil Markandya va Edvard Barbier tomonidan 1989-yilda Buyuk Britaniya hukumatiga taqdim etilgan “Yashil iqtisodiyot rejası” nomli hisobotda kiritilgan [9]. Ilmiy almashuv doirasida mavjud bo‘lgan “yashil iqtisodiyot”ning rasmiy ta’rifi esa Birlashgan Millatlar Tashkilotining Aholishunoslik va Atrof-Muhit Dasturi (UNEP) tomonidan 2009-yilda berilgan. Unga ko‘ra, “yashil iqtisodiyot” – bu mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqarish, taqsimlash va iste’mol qilish bilan bog‘liq bo‘lgan iqtisodiy faoliyat tizimi bo‘lib, u kelajak avlodlarni jiddiy ekologik xavflarga va tabiiy resurslar tanqisligiga duchor qilmasdan, uzoq muddatli inson farovonligiga olib kelishni ta’minlaydi [10].

Biz “yashil iqtisodiyot” deganda, cheklangan tabiiy resurslar o‘rniga tiklanadigan resurslardan oqilona foydalanish asosida insonlar va jamiyatning cheksiz talab-ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiluvchi iqtisodiy munosabatlar tizimini nazarda tutamiz. Yashil iqtisodiyot inson va tabiat o‘rtasida adolatli munosabatlarni ta’minlaydigan iqtisodiy rivojlanish modelidir. U an’anaviy iqtisodiyotdan resurslardan foydalanish usuli, foydalaniladigan asosiy resurslarning turi, tarmoq va sohalar ko‘lami, makro- va mikroiqtisodiy maqsadlari, tizim turi, tamoyillari, iqtisodiy tahlil birliklari va ko‘rsatkichlari kabi mezonlar bilan farqlanadi.

“Yashil” iqtisodiyot terminologiyalari

“Yashil” iqtisodiyotning mazmun-mohiyatini to‘liq yoritish uchun uning tayanch atamalarini aniqlash va ularga qisqacha tafsilot berish zarur. “Yashil” iqtisodiyotning muhim atamalariga quyidagi terminologiyalar kiradi:

1. “Yashil” investitsiyalar – bu turli moliyaviy vositalardan iborat bo‘lib, ular ekologiya va iqtisodiyot o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash imkonini beradi va bunday investitsiyalardan foyda ko‘rish asosida barcha tadbirkorlik subyektlarining atrof-muhitga salbiy ta’sirini kamaytirish uchun xizmat qiladi [11]. Ularga yashil ipoteka, yashil kreditlash, yashil loyihalarni moliyalashtirish, yashil obligatsiyalar, qimmatli qog‘ozlar bozorining investitsiyalari, yashil lizing kabi mexanizmlar kiradi.

2. “Yashil” innovatsiyalar – atrof-muhitga zarar yetkazishni kamaytirish, tabiiy resurslardan foydalanishni optimallashtirish maqsadida yaratilgan mahsulotlar, xizmatlar yoki jarayonlardir [12]. Misol sifatida elektromobillar ishlab chiqarish, chiqindilarni qayta ishlash texnologiyalarini joriy etish, quyosh panellarini yaratish va ekologik mahsulotlar ishlab chiqarish texnologiyalarini ko‘rsatish mumkin.

3. “Yashil” tadbirkor – iqtisodiy faoliyatni ekologik farovonlik bilan birlashtirishga intiluvchi, ekologik muammolarga innovatsion yechimlar taklif etuvchi tadbirkorlik shaklidir [13]. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi PF-16-son Farmoniga muvofiq, 2025-yil 1-sentabrdan boshlab tadbirkorlik subyektlarini “yashil tadbirkor” sifatida e’tirof etish va ushbu maqomni belgilovchi maxsus platformani ishga tushirish vazifasi qo‘yilgan [1].




ko'kalamzorlashtirish, jumladan, korxonani "yashil belbog'" bilan o'rash, sug'orish tizimlarini o'rnatish, tomchilatish, yomg'irlatish va konteynerli (qopli) sug'orish tizimini joriy qilish;
energiya tejamkorligini ta'minlash, jumladan, energiya tejovchi uskunalar va texnologiyalarni joriy qilish;
korxonaning atrof-muhitga ta'sirini kamaytirish, jumladan, ekologik huquqbuzarlik sodir etmaslik, atmosferaga tashlamalarni onlayn monitoring qilish tizimini joriy etish;
ishlab chiqarishga sirkulyar iqtisodiyotni joriy qilish ("7R") tamoyilini tatbiq etish;
"Yashil tadbirkor" maqomini olgan tadbirkorlik subyektlariga quyidagi qo'llab-quvvatlash choralari qo'llash:
"Shaffof qurilish" platformasida ustuvorlik berish;
muayyan muddat davomida ekologik tekshiruvlardan ozod etish;
xalqaro bozorlarga chiqish uchun qo'llab-quvvatlash;
tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingi doirasida qo'shimcha ball berish.

4. **"Yashil» marketing** – bu ekologik toza mahsulotlarni ishlab chiqarish yoki ekologik toza ishlab chiqarish texnologiyalaridan foydalanish orqali iste'molchilarning sodiqligini, brend xabardorligini va sotishni oshirishdir [14]. Yashil marketing tovar va xizmatlarni siljitishning «yashil» usuli hisoblanadi. U "yashil" tovar, narx, tovar taqsimlash va kommunikatsiya vositalardan keng foydalanish yo'lida iqtisodiyotni "yashil" transformatsiyalashga ko'maklashadi.

5. **"Yashil tarif"**. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvar PF-16-son "O'zbekiston – 2030" strategiyasini "atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi farmoniga ko'ra aholi va tadbirkorlik subyektlari tomonidan qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan keng foydalanishni rag'batlantirish maqsadida 2025-yil 1-apreldan boshlab chiqindilar utilitatsiyasi hisobiga hamda shamol va quyosh manbalaridan ishlab chiqarilgan elektr energiyasi uchun "yashil tarif"lar joriy etilishi ko'zlangan. Bunda, tadbirkorlik subyektlari tomonidan chiqindi va biogaz utilitatsiyasi orqali ishlab chiqariladigan hamda tashkilotlarning o'z hududlarida o'rnatgan shamol va quyosh elektr qurilmalaridan ishlab chiqariladigan elektr energiyasi uchun, aholining quyoshdan olingan va foydalanishda o'z ehtiyojidan orttirib, davlatga sotadigan elektr energiyasi uchun imtiyozli tariflar belgilanadi [1].

"Yashil" iqtisodiyotning organic tuzilishi. Agar "yashil" iqtisodiyotning evolyutsion davlini kuzatsak, uning ilk boshqichi "ekologik iqtisodiyot"ning vujudga kelishi bilan bevosita bog'liq bo'lgankigiga guvoh bo'lamiz. Mazkur iqtisodiyotning keyingi shakllanish bosqichi esa atrof-muhitni asrashga doir iqtisodiy munosabatlarda yaqqol namoyon bo'ladi. Yashil iqtisodiyotning uchinchi evolyutsion boshqichi "bioiqtisodiyot" bilan bog'liq bo'lib, u iqtisodiyotning yashillashtirishga olib keldi. Bu jarayon bizga "yashil" iqtisodiyotining organic tuzilishini aniqlashga asos sifatida xizmat qildi. "Yashil" iqtisodiyotning organic tuzilishi, fikrimizcha, 3 ta tarkibiy qismlardan iborat (1-rasm).



1-rasm. "Yashil" iqtisodiyotning organic tuzilishi¹

1 Manba: muallif ishlanmasi.



1-rasmdan ko'rinib turibdiki, "yashil" iqtisodiyotni shakllanishi "Ekologik iqtisodiyoti" (Ecological economics) dan boshlanadi. Bunday iqtisodiyot, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha mutaxassislari (UNEP) ta'biriga ko'ra, "insonlarning farovonligini yaxshilaydi va ijtimoiy adolatni ta'minlaydi, ekologik xavflarni va tabiatning yemirilib ketishini sezilarli darajada kamaytiradi" [15]

"Yashil" iqtisodiyotning ikkinchi organik tuzilishini "Atrof-muhit iqtisodiyoti" (Environmental economics) tashkil qiladi. Ushbu iqtisodiyotda asosiy e'tibor atrof-muhitni asrashga qaratiladi. Uning doirasida iqtisodiy faoliyatning atrof-muhitga ta'siri natijasida yuzaga kelayotgan ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarni eksternali, ya'ni tashqi samaralar sifatida talqin etish boshlandi. Bunga muvofiq ekologik muammolarni amaldagi iqtisodiy munosabatlar doirasida hal etish va xalqaro darajada umumlashtirilishi zarurligi [16], namoyen bo'ladi.

"Yashil" iqtisodiyotning ushunchi uzviy qismini "Bioiqtisodiyot" (Bioeconomics) tashkil qiladi. Bioiqtisodiyot oziq-ovqat, sog'liq, materiallar, mahsulotlar, to'qimachilik va energiya ishlab chiqarish uchun ekinlar, o'rmonlar, baliqlar, hayvonlar va mikroorganizmlar kabi quruqlik va dengizning qayta tiklanadigan biologik resurslardan foydalanadigan iqtisodiyot qismlarini qamrab oladi [17]. Uning asosiy yo'NALISHLARIGA BIOENERGETIKA, QISHLOQ XO'JALIGI, OZIQ-OVQAT ISHLAB CHIQARISH, BIOMATERIALLAR KIRADI.

BIZ "yashil" iqtisodiyotning organik tuzilishidagi ekologik-, atrof-muhit-, bio va yashil prefiksli "iqtisodiyot" turlarining qiyosiy tahlilini o'tkazdik (1-jadval).

1-jadval. Ekologik, atrof-muhit, bio va yashil prefiksli "iqtisodiyot" turlarining qiyosiy tahlili².

T/r	Qiyoslash mezonlari	Ekologik iqtisodiyot	Atrof-muhit iqtisodiyoti	Bioiqtisodiyot	"Yashil" iqtisodiyot
1.	Iqtisodiyotning qamrov darajasi va chegarasi	Iqtisodiyotga kattaroq ekotizimning quyi tizimi sifatida qaraladi	Tabiiy kapitalni saqlash va ko'paytirishga urg'u beradi	Biosfera va iqtisodiyot o'rtasidagi munosabatlarni o'rganadi	Iqtisodiy o'sish va tabiiy resurslarni saqlash o'rtasida oqilona muvozanatni o'rnatishga qaratilgan
2.	Tadqiqot ob'ekti	Ekologiya	Atrof-muhitni boshqarish	Biosfera iqtisodiyoti	"Yashil" iqtisodiy o'sish
3.	Resurslari	Ekologik resurslar	Inson faoliyati natijasi yaratilgan atrof-muhit resurslari	Bioresurslar	Yashil resurslar
4.	Soha mutaxassislari	Ekolog-iqtisodchilar	Atrof-muhit boshqaruvchilari	Bioiqtisodchilar	Yashil iqtisodchilar
5.	Global samaradorlik ko'rsatkichlari	Ekologik samaradorlik indeksi (EPI)	Havo sifati indeksi (AQI)	Ekotizimning biologik mahsuldorligi (BPE)	Global yashil iqtisodiyot indeksi (GGEI)
6.	Mulkchilik munosabatlari	Ekologik resurslardan sama	Tabiiy resurslarni milliy hududa birgalikda egalik qilish va foydalanish	Biosfera resurslarini xalqaro hamjamiyati bilan birga egalik qilish	Tabiiy resurslardan foydalanadigan sub'ektlarni diversifikatsiya qilish

"Yashil" iqtisodiyotning o'ziga xosligi va uning an'anaviy iqtisodiyotdan farqi uning tarkibiga kiradigan tarmoq va sohalar bilan belgilanadi. Ularga quyidagilarni kiritish mumkin:

"Yashil" energetika – bu qayta tiklanadigan manbalardan elektr energiyasi va boshqa turdagi energiya ishlab chiqarish faoliyati bo'lib, ular ekspluatatsiya jarayonida tugamaydi va atrof-muhitga jiddiy zarar yetkazmaydi [18]. Uning asosiy turlariga quyosh va shamol energetikasi, gidroenergetika kiradi.

"Yashil" transport – bu tejamkor va atrof-muhitga salbiy ta'sirni minimallashtiradigan harakatlanish turi bo'lib, uning natijasida ekologik va ijtimoiy salbiy oqibatlar kamaytiriladi. Transport sohasida yoqilg'i yonishi natijasida karbonat angidrid (CO₂) chiqindilari umumiy chiqindilarning taxminan 25 foizini tashkil qiladi [19]. Transportning "yashil" shakllariga elektromobillar, velosipedlar, samokatlar, skuterlar va boshqa motorsiz transport vositalari kiradi. Harakatlanishning eng yaxshi va inson salomatligiga foydali turi esa – piyoda yurishdir.

"Yashil" sanoat – bu sanoat rivojlanishini ekologik funksiyalarni saqlash va jamiyatga foyda keltirish bilan uyg'unlashtirib, ishlab chiqarish jarayonida resurslardan barqaror foydalanish samaradorligi va natijadorligini birinchi o'ringa qo'yadigan tarmoqdir [20].

2 Manba: muallif ishlanmasi.



Ekologik usullar va texnologiyalarga asoslangan **“Yashil turizm”** ham iqtisodiyotni “yashillashtirish”ning muhim yo‘nalishiga aylanmoqda. Bugungi kunda O‘zbekistonda madaniy turizm bilan bir qatorda ekologik, qishloq, sog‘lomlashtirish, tog‘, cho‘l va boshqa yashil turizm turlari ham rivojlanmoqda. Xususan, Zomin, Ugam-Chotqol, Oqtepa, Sarmishsoy milliy bog‘lari, Bo‘stonliq sanatoriyalari, To‘dako‘l va Aydar-Arnasoy ko‘llari sohillari, Shahrisabz dam olish maskanlari va Aydarko‘l kabi tabiiy go‘zal maskanlar yashil turistik zonalariga aylangan va minglab sayyohlarni o‘ziga jalb qilmoqda.

Yashil iqtisodiyotni rivojlantirishning yana bir ustuvor yo‘nalishi – bu **“Yashil” suv xo‘jaligi** hisoblanadi. O‘zbekiston suv stressidan aziyat chekayotgan davlatlar reytingida 164 ta mamlakat orasida 25-o‘rinni egallaydi [21]. Shuning uchun mamlakatimizda suv resurslaridan samarali foydalanish maqsadida quyidagi innovatsion texnologiyalar keng joriy etilmoqda: tomchilatib va yomg‘irlatib sug‘orish, egiluvchan quvurlar orqali sug‘orish, egatga plyonka to‘shab sug‘orish, girdogel granularidan foydalanib sug‘orish va qarama-qarshi sug‘orish texnologiyalari.

Natijada, suv tejovchi texnologiyalar bilan qamrab olingan maydonlar 2017-yilda 28 ming gektarni tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilda bu ko‘rsatkich 1,9 million gektarga, shu jumladan tomchilatib sug‘orish maydoni esa 561 ming gektarga yetkazildi. Tejamkor texnologiyalardan foydalanish natijasida 2024-yilda 2 milliard kub metr suv tejashga erishildi [22].

“Yashil” qishloq xo‘jaligiga o‘tish yashil iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismini tashkil etadi. O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishni “yashil” tamoyillar asosida rivojlantirish bo‘yicha dadil qadamlar tashlanmoqda. Bunda quyidagilar amalga oshirilmoqda:

- tanazzulga uchragan yaylovlarni tiklash va ularni barqaror boshqarish mexanizmlarini joriy etish;
- organik qishloq xo‘jaligi usullarini keng joriy qilish;
- haydaladigan yer maydonlarining doimiy qoplangan holatda bo‘lishini ta‘minlash maqsadida ekinlarni takror ekish;
- ekinlarni diversifikatsiya qilish (ko‘p yillik daraxt va ko‘p yillik o‘tlar ekilishini kengaytirish);
- ishlab chiqarish va qayta ishlashga investitsiyalarni jalb etish, qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarining qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratish;
- chorvachilikdagi organik chiqindilarni to‘g‘ri saqlash va qayta ishlash;
- suv manbalarining qishloq xo‘jaligi chiqindilari bilan ifloslanishining oldini olish;
- sho‘rlanish, qurg‘oqchilik va boshqa xavfli hodisalarga bardoshli yuqori mahsuldor chorva mollari va o‘simlik navlarini yetishtirish;
- mahalliy chorva va o‘simliklarning genofondini, shuningdek, madaniy o‘simliklarning yovvoyi ajdodlari genofondini saqlash [23].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

Birinchidan, “yashil iqtisodiyot” – cheklangan tabiiy resurslar o‘rniga tiklanadigan resurslardan oqilona foydalanish orqali inson va jamiyatning cheksiz talab-ehtiyojlarini qondirish bilan bog‘liq iqtisodiy munosabatlar tizimi, deb ta‘riflanadi.

Ikkinchidan, “yashil” iqtisodiyotning organik tuzilishi “ekologik iqtisodiyot”, “atrof-muhit iqtisodiyoti” va “bioiqtisodiyot” tushunchalaridan tarkib topganligi aniqlangan.

Uchinchidan, “yashil iqtisodiyot” tarmoq tuzilmasiga quyidagilarni kiritish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi: “yashil” energetika, “yashil” transport, “yashil” turizm, chiqindilarni qayta ishlash, “yashil” suv xo‘jaligi, “yashil” qishloq xo‘jaligi va boshqa “yashil” tarmoq va sohalar.

Takliflar

O‘zbekistonda “yashil iqtisodiyot”ni rivojlantirish uchun quyidagi takliflar tavsiya etiladi:

- O‘zbekiston iqtisodiyoti o‘sishining “yashil rivojlanish” modelini ishlab chiqishda “yashil” iqtisodiyotning uch qatlamli – “ekologik iqtisodiyot”, “atrof-muhit iqtisodiyoti” va “bioiqtisodiyot” organik tuzilishini inobatga olish maqsadga muvofiq bo‘ladi.
- Iqtisodiyotni “yashil” transformatsiya qilishda bevosita mexanizmlar bilan bir qatorda “yashil” innovatsiyalarni joriy qilish, “yashil” investitsiyalarni jalb etish, “yashil” ovqatlanishni tashkil qilish, “yashil” tadbirkorlik tashabbuslarini rivojlantirish va “yashil” iqtisodiy insonni tarbiyalash kabi bilvosita mexanizmlardan ham faol foydalanish lozim.
- “Yashil iqtisodiyot” infratuzilmasini shakllantirish va rivojlantirish bo‘yicha tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish, shu yo‘nalishda ilmiy tadqiqotlar olib borishni keng yo‘lga qo‘yish zarur.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi PF-16-son "O'zbekiston – 2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/-7369703>.
2. Costanza R., Daly H. Towards an Ecological Economics. Ecological Modelling 38. Elsevier Science Publishers B.V., Amsterdam, 1987. 245 p.
3. Boulding K.E. The Economics of the Coming Spaceship Earth. In: H. Jarrett (ed.) Environmental Quality in a Growing Economy. Baltimore, Md: Resources for the Future, Johns Hopkins University Press, 1966. P. 3–14.
4. Bartelmus P. Environment, Growth and Development. The Concepts and Strategies of Sustainability. London; New York: Routledge, 1994. 163 p.
5. Бобылев С.Н., Ходжаев А.Ш. Экономика природопользования. Учебник. – М., 2003. – 567 с.
6. George H. Progress and Poverty: An Inquiry into the Cause of Industrial Depressions and of Increase of Want with Increase of Wealth: The Remedy. New York: Appleton and Co., 1879.
7. Pearce D., Markandya A., Barbier E.B. Blueprint for a Green Economy. – London: Earthscan, 1989. – 192 p.
8. Вахабов А., Хажибакиев Ш., Утемуратова Г. va boshqalar. «Зеленая экономика». Учебник. – Т.: Издательство «Инновационное развитие», 2023. – 208 с.
9. Pearce D., Markandya A., Barbier E.B. Blueprint for a Green Economy. – London: Earthscan, 1989. – 192 p.
10. A Guidebook to the Green Economy. Issue 1: Green Economy, Green Growth, and Low-Carbon Development – history, definitions and a guide to recent publications. 2012. [Elektron resurs]. URL: <https://sustainabledevelopment.un.org/content/documents/GE%20Guidebook.pdf> (murojaat sanasi: 03.06.2020).
11. Mishulina S.I. "Green" Investments as an Element of the Mechanism of Greening the Regional Economy // Sochi Journal of Economy. – 2019. – Vol. 13. – № 2. – P. 155–164.
12. Зеленые инновации. <https://link.springer.com/referenceworkentry>.
13. Green Entrepreneurship in India. <https://ciiblog.in/green-entrepreneurship-in-india>.
14. Зайка А.Ю., Веранян К.Г., Кравчук А.Ю., Тасейко О.В. Зеленый маркетинг // Актуальные проблемы авиации и космонавтики. 2011. № 7. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/zelenyy-marketing> (murojaat sanasi: 27.03.2025).
15. Зеленая экономика: здравоохранение / United Nations Environmental Programme: Green Economy. URL: http://www.unep.org/greenconomy/Portals/88/documents/research_products/briefingpapers/Ru_GE_HEALTH.pdf.
16. Beder S. Environmental Economics and Ecological Economics: The Contribution of Interdisciplinary to Understanding, Influence and Effectiveness. Environmental Conservation, 2011. Vol. 38, No. 2, pp. 140–150.
17. Биозкономика. Википедия, свободная энциклопедия. <https://en.wikipedia.org/wiki/Bioeconomy>.
18. Зелёная энергетика: виды, плюсы и минусы, развитие. <https://www.renwex.ru/ru/ii/zelyonaya-ehnergetika/>.
19. Шадиметов Ю.Ш. Зеленый транспорт – путь к устойчивому развитию. <https://na-journal.ru/9-2023-ekologiya/6333-zelenyi-transport-put-k-ustoichivomu-razvitiyu>.
20. Что такое зеленая индустрия? И как управлять зеленой промышленностью? <https://lsigs.com/ru>.
21. Suv tejamkor texnologiyalar. <https://suvchimaktabi.uz/news/10/> (murojaat sanasi: 23.03.2025).
22. O'zbekiston suv inqirozi yoqasida: muammo, yechim va istiqbollar. <https://ekolog.uz/1279/> (murojaat sanasi: 23.03.2025).
23. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktyabrdagi PQ-4477-son "2019–2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining 'yashil' iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori. <https://lex.uz/docs/-4539502>.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. aprel. № 3. navbatdan tashqari son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>